AQLI ZAIF O‘QUVCHILARNI DIDAKTIK O‘YINLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH

Raxbar dots. **N.Yu.Yusupova**
2-kurs magistri **F.Fayzulayeva**
Nizami nomidagi UzbMPU Kafedra «oligofrenopedagogika»
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.23552930

Annotatsiya
Maqolada aqliy rivojlanishida buzilishlari bo‘lgan o‘quvchilarning bilish jarayonlarini rivojlantirishda didaktik o‘yinlarning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, maxsus ta’lim jarayonida didaktik o‘yinlardan foydalanish usullari hamda pedagogning vazifalari bayon etilgan.

Annotatsiya
В статье освещается значение дидактических игр в развитии познавательных процессов у учащихся с нарушениями интеллектуального развития. Также рассматриваются задачи и методы использования дидактических игр в процессе специального образования.

Annotatsiya
The article highlights the importance of didactic games in developing the cognitive processes of students with intellectual disabilities. It also describes methods of using didactic games in special education and outlines the roles and responsibilities of the teacher.

Kalit so‘zlar: aqliy rivojlanishida buzilishlari bo‘lgan o‘quvchilar, didaktik o‘yinlar, maxsus pedagogika, oligofrenopedagogika, bilish jarayonlari, korreksion - rivojlantiruvchi ta’lim.

Didaktik o‘yin — birinchi sinfdagi aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun samarali o‘qitish usullaridan biri, shuningdek, keyingi sinflar uchun ham samarali ta’limiy vositadir.

Aqli zaif bolalarda nutq nuqsonlarini bartaraf etishda didaktik o‘yinlar muhim korreksion-pedagogik vosita hisoblanadi. Chunki bunday bolalarda lug‘at boyligi kamligi, tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz qilish, gap tuzishda qiynalish, diqqat va xotiraning sustligi kabi holatlar kuzatilishi mumkin. Didaktik o‘yin orkali nutq faolligini oshirish, bola o‘yin jarayonida savollarga javob beradi, so‘z va gaplardan foydalanishga harakat qiladi. Lug‘at boyligini kengaytiradi, predmetlar, hayvonlar, ranglar, shakllar va harakatlarni nomlash orqali yangi so‘zlarni o‘zlashtiradi. Maxsus o‘yinlar yordamida bola tovushlarni to‘g‘ri aytishga va farqlashga o‘rgatiladi, talaffuzni yaxshilaydi. Grammatik nutqni shakllantiradi. So‘zlarni to‘g‘ri qo‘llash, ko‘plik, kelishik va gap tuzish ko‘nikmalari rivojlanadi.

Eshitish va fonematik idrokni rivojlantiradi. Bola o‘xshash tovushlarni farqlashni, so‘z tarkibidagi tovushni aniqlashni o‘rganadi. Diqqat va xotirani mustahkamlaydi. O‘yin qoidalarini eslab qolish va topshiriqlarni bajarish orqali bilish jarayonlari rivojlanadi. Muloqot ko‘nikmasini rivojlantiradi. Tengdoshlari va pedagog bilan muloqot qilish bolaning kommunikativ faolligini oshiradi. Qiziqish va motivatsiyani kuchaytiradi. O‘yin shaklidagi mashg‘ulot bola uchun oddiy mashqlarga qaraganda qiziqarliroq bo‘ladi.

Aqli zaif boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish jarayoni murakkab kechadi. Shu jumladan, aqli zaif o‘quvchilarning faolligini oshirish va bilish jarayonlarini rag‘batlantirish doimo ta’lim-tarbiya jarayonida markaziy o‘rin egallashi lozim. Ta’limning samaradorligini ta’minlashda nutq, tafakkur, xotira va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish o‘ta

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

muhimdir. Shu nuqtai nazardan, didaktik o‘yinlar — aqli zaif o‘quvchilarni rivojlantirishda samarali vosita sifatida qaraladi. Didaktik o‘yinlar orqali bolalar nafaqat bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtiradi, balki tafakkur, diqqat va muloqot qobiliyatlarini ham mustahkamlaydi.

Mashqlar bilan birga, u o‘zlashtirilgan materialni mustahkamlash va o‘quvchilarning og’zaqi nutqiy faoliyatini faollashtirishni maqsad qiladi. Biroq, mashqlardan farqli o‘ldinroq, o‘yin birinchi navbatda bolaning hissiy sohasiga ta’sir ko‘rsatadi.

Shu sababli, ko‘p hollarda bu — gapirishga bo‘lgan motivatsiyani oshirish hamda zarur ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishning eng samarali vositasidir.

Maktab amaliyotida didaktik o‘yinlar va mashqlar ba’zan o‘zaro aralashtirib yuboriladi. Katta ehtimol bilan, bu ushbu usullar orqali hal etiladigan ta’limiy vazifalari bilan bog‘liq. Shu bilan birga, didaktik o‘yinda bilishga oid vazifalardan tashqari, o‘yinga xos amaliy vazifalar ham mavjudligi e’tibordan chetda qoladi, ularni amalga oshirish orqali ta’limning asosiy maqsadiga erishiladi.

Didaktik o‘yinlar nafaqat bilim berish, balki mavjud og’zaqi nutqiy kamchiliklarni bartaraf etish, lug‘at boyligini kengaytirish, talaffuzni yaxshilash va mustaqil fikrlashni rivojlantirish vositasi sifatida qo‘llanadi.

Didaktik o‘yinlar davomida bola so‘zlarni takrorlaydi, savollarga javob beradi, predmet va hodisalarni tasvirlaydi, suhbatga kirishadi. Shu orqali og‘zaki nutq tabiiy va qiziqarli faoliyat jarayonida shakllanadi.

I. M. Bgajnokova, V. G. Petrova va S. Ya. Rubinshteyn o‘z kitoblarida qayd etishlaricha, bu bolalar xotirasi sekin yodda saqlash, tez unutish, noaniq esga tushirish va epizodik xotira yo‘qotishlari bilan tavsiflanadi. Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarda ham mantiqiy, ham mexanik xotira buzilishlari kuzatiladi, bu esa ixtiyoriy va ixtiyorsiz eslab qolish jarayonlarining hajmi hamda samaradorligiga ta’sir ko‘rsatadi. Xotiraning bunday xususiyatlari o‘rganish jarayonini va umuman kognitiv faoliyatni sezilarli darajada murakkablashtiradi.

Ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, yangi bilimlarni egallash va ulardan foydalanish xotira ishtirokisiz imkonsizdir. Bunday sharoitda psixiq tasavvurlarning shakllanishi ham o‘ta qiyinlashadi. Bgajnokova I. M., Petrova V. G. va Belyakova I. V. o'z asarlarida aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning tafakkuri odatiy rivojlanishdagi kabi qonuniyatlar asosida rivojlanadi:

Ularda xam shu turdagi fikrlar shakillanadi - vizual - samarali, vizual-obrazli, og‘zaki-mantiqiy; xuddi shu amallar: tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish. Ammo o'ziga xos xususiyatlar ham bor, ular asosan taffakurni sekin rivojlanishning sur'atlaridan iborat. Analitik va sintetik faoliyatning tiziming rivojlanmaganligi oqibatidal, yetarli bo‘lmagan, sifatsiz sintez ham yuzaga keladi.

Tahlil va sintez qilishdagi qiyinchiliklar o’quvchilarning cheklangan lu’gat boyligi tufayli yanada kuchayadi, chunki ularning faol lug'atida so'zlar yo'qligi, zarur ob'ektni tavsiflash uchun, uning idrok etilishi yaxlitligini va u haqidagi ruhiy tasavvurlarning shakllanishini buzadi. S.Ya. Rubinshteyn ta’kidlaganicha, aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarining bilish faoliyatidagi tafakkurni aniqligini, umumlashtirish qobiliyatining pastligida.

O‘quv jarayonida bu bolalarning qoidalar va umumiy tushunchalarni o‘zlashtirishda qiynalishlarida namoyon bo‘ladi. I.M.Bgajnokova, V.G.Petrova, I.V.Belyakovalar o‘z asarlarida, taqqoslash opersiysi ham buzilganligi ma’lum bo‘ladi.

Ixtisoslashtirilgan maxsus ta’lim maktablaridagi kichik yoshli o‘quvchilar odatda narsalar o‘rtasidagi umumiy jihatlarni aniqlashga emas, balki ularni bir-biridan ajratib turadigan xususiyatlarga e’tibor qaratadilar. Tasniflashdagi keyingi qiyinchiliklar shu bilan bog‘liq.

Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bola ko‘pincha o‘z harakatlari haqida o‘ylab ko‘rmaydi, uning natijasini oldindan ko‘ra olmaydi. Ya’ni,uning fikrlash jarayoni butun faoliyatning yakuniy natijasini

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

oldindan belgilab beruvchi boshqaruvchi omil vazifasini bajarmaydi. . Ixtisoslashtirilgan maxsus ta’lim maktablari o‘quvchilari o‘zini o‘zi baholashga intilmaydilar va erishilgan yutuqlarni yanada yaxshilashga hech qanday istak bildirmaydilar. Biroq, aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalarda bunday kamchiliklar va boshqa salbiy shaxsiy xususiyatlarning sabablarini nafaqat markaziy asab tizimining organik shikastlanishida, balki ularni tarbiyalash va o‘qitishning ijtimoiy sharoitlarida ham izlash lozim. Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning shaxsiy rivojlanishi maxsus ta’lim maktablari oldida turgan eng muhim va murakkab vazifalardan biridir. Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining shaxs sifatida to‘g‘ri rivojlanishi bir qator omillar tufayli murakkablashadi.

Mustaqil nutqini kuzatish natijalari shuni ko‘rsatdiki, ular sujetli rasm yordamida hikoya tuzishda, ko‘rgan narsalarini gapirib berish, ular uchun o‘qib berilgan matnni so‘zlab berish, o‘z ko‘rgan-kechirganlarini izchillik bilan bayon etib berish kabi topshiriqlarni juda katta qiyinchiliklar bilan bajarar ekanlar.

Shunday qilib aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarni rivojlantirishda didaktik o‘yinlardan foydalanish maxsus pedagogikaning muhim metodik yo‘nalishlaridan biridir. Didaktik o‘yinlar o‘quvchilarning ta’lim jarayonida qiziqishini oshirish, bilish faoliyatini faollashtirish, rivojlantirish uchun qulay pedagogik sharoit yaratish maqsadga muvofiq bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Выготский, Л. С. Собрание сочинений : в 6 т. Т. 5 : Основы дефектологии / Л. С. Выготский ; под ред. Т. А. Власовой. — Москва : Педагогика, 1983. — 368 с. atyrau-edu.kz
2. Выготский, Л. С. Мышление и речь : психологические исследования / Л. С. Выготский ; под ред. и со вступ. ст. В. Колбановского. — Москва ; Ленинград : Соцэкгиз, 1934. — 324 с. Search RSL
3. Выготский, Л. С. Игра и ее роль в психическом развитии ребенка / Л. С. Выготский // Вопросы психологии. — 1966. — № 6. — С. 62–76.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.